

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Iqtsodiyot va pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası professori
Kenjayeva Dildora Terkashevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash

kompetensiyalarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy-ma'naviy merosidan foydalanish masalalari yoritilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalar tahlil qilinadi hamda ularning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada bolalarda mustaqil fikrlash, erkin mushohada yuritish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda milliy-ma'naviy merosning o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari qarashlari asosida tashkil etiladigan didaktik o'yinlar, suhbatlar, hikoyalar va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar orqali bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish usullari yoritilgan.

Bundan tashqari, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy metod va yondashuvlar ham tavsiya etiladi. Xususan, bolalarni savol berishga undash, muammoli vaziyatlar yaratish, hikoya va rivoyatlar orqali fikrlashga yo'naltirish kabi metodlarning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va pedagogik merosga tayanish bolalarning intellektual rivoji, tafakkuri hamda shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: akmeoliya, maktabgacha ta'lim, mustaqil fikrlash, shakl, metod, vosita.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Университет экономики и педагогики
Профессор, кафедра школьного образования
Кенджаева Дилдора Теркашевна

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы использования богатого научно-духовного наследия восточных мыслителей в развитии компетенций

самостоятельного мышления у детей дошкольного возраста. В частности, анализируются педагогические идеи, выдвинутые в трудах Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины и Алишера Навои, а также раскрывается их значение для системы дошкольного образования. В статье обосновывается роль национально-духовного наследия в формировании у детей самостоятельного мышления, свободного рассуждения, принятия правильных решений в проблемных ситуациях и развития творческого мышления.

Также освещаются методы формирования навыков самостоятельного мышления у детей посредством дидактических игр, бесед, рассказов и развивающих занятий, организованных на основе взглядов восточных мыслителей.

Кроме того, в статье предлагаются практические методы и педагогические подходы, которые могут применяться педагогами в организациях дошкольного образования. В частности, обосновывается эффективность таких методов, как побуждение детей к постановке вопросов, создание проблемных ситуаций, направление мышления через рассказы и предания.

Результаты исследования показывают, что опора на национальные ценности и педагогическое наследие в процессе дошкольного образования является важным фактором интеллектуального развития детей, формирования их мышления и личностных качеств.

Ключевые слова: акмеология, дошкольное образование, самостоятельное мышление, форма, метод, средство.

DEVELOPING INDEPENDENT THINKING COMPETENCIES IN PRESCHOOL CHILDREN BASED ON THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS

University of Economics and Pedagogy
Professor, Department of School Education
Kenjayeva Dildora Terkashevna

Abstract:

This article examines the issues of using the rich scientific and spiritual heritage of Eastern thinkers in developing independent thinking competencies among preschool children. In particular, the educational ideas presented in the works of Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali Ibn Sina, and Alisher Navoi are analyzed, and their significance for the preschool education system is revealed. The article substantiates the role of national and spiritual heritage in fostering independent thinking, free reasoning, the ability to make correct decisions in problem situations, and the development of creative thinking in children.

Furthermore, the study highlights methods for forming independent thinking skills in children through didactic games, conversations, stories, and developmental activities organized on the basis of the views of Eastern scholars.

In addition, the article proposes practical methods and pedagogical approaches that can be applied by educators in preschool educational institutions. In particular, the effectiveness of methods such as encouraging children to ask questions, creating problem situations, and guiding thinking through stories and narratives is justified.

The research results demonstrate that relying on national values and pedagogical heritage in the preschool education process is an important factor in the intellectual development of children, as well as in shaping their thinking abilities and personal qualities.

Keywords: acmeology, preschool education, independent thinking, form, method, tool.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi hamda ijodiy yondashuvni namoyon etishi muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri inson shaxsining intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida poydevor bo'lib xizmat qiladigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli aynan ushbu davrda bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, ularning tashabbuskorligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi¹.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonini faqat zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida emas, balki milliy-ma'naviy qadriyatlar va tarixiy meros bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy-falsafiy merosi nafaqat o'z davrining ilmiy tafakkurini yuksaltirgan, balki yosh avlodni tarbiyalash borasida ham chuqur pedagogik g'oyalarni ilgari surgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson kamolotida bilim va tafakkurning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab, ta'lim jarayonida fikrlashni rivojlantirish muhimligini qayd etadi². Shuningdek, Abu Ali ibn Sino bolalar tarbiyasida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish, bilimni izchil va tushunarli shaklda berish zarurligini alohida ta'kidlagan³.

Sharq pedagogik tafakkurida insonning aqliy rivoji, tafakkuri va axloqiy kamoloti o'zaro uzviy bog'liq holda qaraladi. Shu nuqtai nazardan, Abu Rayhon Beruniy ilmiy bilish jarayonida kuzatish, tajriba va tahlil muhim o'rin tutishini ta'kidlab, shaxsning mustaqil fikrlashi ilmiy tafakkurning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatib o'tgan⁴. O'z navbatida, Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson tarbiyasida tafakkur, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligini alohida ta'kidlaydi⁵. Ushbu g'oyalar bugungi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida

bolalarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish turli pedagogik usullar, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, suhbat va kuzatish faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Biroq ushbu jarayonda milliy-ma'naviy merosga asoslangan yondashuvlardan foydalanish bolalarning nafaqat aqliy rivojiga, balki ularning ma'naviy dunyosini boyitishga ham xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining tarbiya va ta'limga oid qarashlari bolalarda savol berish, fikr yuritish, tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muhim metodik manba bo'la oladi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosidan foydalanish masalasini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi — Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarni tahlil qilish hamda ularni maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga tatbiq etish imkoniyatlarini yoritib berishdan iborat.

Mamlakatimizda hur fikrli, mutelik va jur'atsizlikdan holi bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, mustaqil va erkin shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Vatanimizning ulkan umidi bo'lgan yosh avlodni kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o'z Vatani va xalqini, oilasini sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash bizning asl maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham shaxsni xar tomonlama tarbiyalash dolzarb muammo bo'lib kelgan. O'zbek xalqi yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda boy tarixiy tajribaga ega

“Fikr tarbiyasi, - deya ta'kidlagan edi ulkan ma'rifatparvar Abdulla Avloniy, - ko'p zamonlardan beri tadqiq qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi”.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaviy qarashlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashlarini o'stirishda foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Zamonaviy ta'lim ta'lim oluvchilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- tezkor o'zgarishlarga ko'nikish, hayotiy faoliyat, shuningdek, mavjud muammolarni hal qilishda o'zlashtirgan bilimlarini mohirlik bilan qo'llay olish;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, real borliq va yuzaga keluvchi muammolar mohiyatini anglay olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish;
- egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llashning samarali usullarini topish, yangi g'oyalarni ilg'ab olish va ijodiy fikrlash;
- axborot texnologiyalaridan o'z vaqtida samarali foydalana olish va ularni qo'llay bilish.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda uning mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim tizimida talabalarni fikrlashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o'rgatish zarurdir.

2. Materials and Methods

Sharq mutafakkirlarining asarlarida yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetkazishga oid pedagogik g'oyalar, shaxs tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari o'z aksini topgan bo'lib, ular bugungi kunda ham muhim pedagogik qiymatga ega. Ushbu asarlarda inson tafakkurini rivojlantirish, aqliy-axloqiy yetuklik va jismoniy barkamollik, estetik madaniyatni shakllantirish masalalari ham ilmiy, ham amaliy jihatdan o'z yechimiga ega bo'lgan.

Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan doston, ertak, maqol va xalq qo'shiqlarida, shuningdek, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mutafakkirlarning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishish chog'ida yosh avlodda barkamol shaxsga xos fazilatlarni tarbiyalashga juda qadimdan alohida e'tibor berib kelinayotganligining guvohi bo'lish mumkin.

Tarbiyaviy mazmunga ega pand-nasihatlarini xalq og'zaki ijodining ertak, doston, aytishuv, topishmoq kabi janrlarida ko'plab uchratish mumkin. Pand-nasihat metodi xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga ta'limiy-axloqiy asarlarda ham samarali qo'llanilgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari pand-nasihat uslubida yozilgan asar sanaladi, unda pand-nasihat tarkibida qiyoslash uslubidan ham samarali foydalangan. Asarda yaxshilik bilan yomonlikni, rostlik bilan yolg'onchilikni, yorug'lik bilan qorong'ulikni, samimiylik bilan quvlikni, kamtarlik bilan takabburlikni, bilimlilik bilan johillikni, saxiylik bilan baxillikni o'zaro qiyoslash asosida ularning mohiyati ochib berilgan.

Yusuf Xos Hojib kishilarga munosabatda o'rtamiyona yo'l tutishni maslahat beradi va "Agar kishilarga o'rtamiyona munosabatda bo'lsang, do'st dushmanga aylanmaydi", - deydi.

"Qutadg'u bilig" asarining pedagogik qiymatini belgilovchi jihatlardan biri unda muammo usulining maqsadga muvofiq qo'llanilganligidir. Milliy pedagogik merosda jumboq – muammoli ta'limga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, u o'ziga xos ahamiyatga ega. Didaktik asarlarda munozaraga keng o'rin ajratilgan bo'lib, munozara asosida jumboq – muammo yechiladi. Chunonchi, "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'mish (Elig) va Oyto'ldi o'rtasidagi munozara quyidagi mazmunga ega: Elig Oyto'ldini ilgiga chaqirib, uni yonimga o'tir, deb taklif qiladi. Lekin Oyto'ldi o'tirmaydi. Elig unga boqib, taajublansa, Oyto'ldi ko'zini yumib oladi va yuzini yashiradi. Xonning yoniga o'tirmay, yerga koptok qo'yib unga o'tiradi.

Eligning jahli chiqib sababini so‘raganda, unga quyidagilarni tushuntiradi: Elig Oyto‘ldiga o‘rin berganda uning yoniga o‘tirmagani “Xon yonida menga o‘rin yo‘q”, degani; yerga ko‘ptok qo‘yib, unga o‘tirgani – davlat ko‘ptok kabi barqaror emas, qo‘ldan chiqib ketadi, degani, Elig boqqanda ko‘zini yumib olgani – davlat ko‘r kishiga o‘xshaydi, kimga ilahsa, unga yopishib oladi; yuzini yashirgani esa, davlat jafu, unga ishonib g‘ururlanib ketma, deganim edi, deydi. [1]

Ko‘rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib asarning mazkur lavhasida birdaniga uchta metod – munozara, muammoli ta‘lim, pand-nasihatdan foydalangan. Demak. Anglanadiki, o‘z davrida mutafakkir asarlarida zamonaviy pedagogik texnologiyaning elementlaridan unumli foydalangan.

Asrlar davomida yosh avlod tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etishda qo‘llanib kelinayotgan pandnomalardan biri Unsurul-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” [2] asaridir. “Qobusnoma” boshidan oxirigacha pand-nasihatdan iborat asar. Ayniqsa, sakkizinchi bob “Anushiravon pandlarini yod olmoq zikrida” bobi bunga yaqqon misoldir. Pand-nasihat qiyosiy taqqoslash tahlili orqali olib boriladi.

Kaykovus “Qobusnoma” asarida barkamol inson (shaxs) tarbiyasi haqidagi qarashlarni bayon etar ekan, ayniqsa, jismoniy tarbiyani tashkil etish masalasiga katta e‘tibor beradi. Buni asarning “Shikorga chiqmoq zikrida”, “Chavgon o‘ynamoq zikrida”, “Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida” kabi boblarida ko‘rish mumkin. Ularda mutafakkir barkamol inson (shaxs) avvalo sog‘lom bo‘lishi zarurligini, shuningdek, bilimlarni o‘zlashtirishda mushohada yuritish, fikrni dalillar asosida ifodalash lozimligini alohida uqtiradi. Xususan, asarning “Ilm talabi va qozichilik zikrida” bobida quyidagilar alohida ta‘kidlanadi: “Barcha peshalarning (hunar) orasida ilmi tolib bo‘lsang, ... kitob va darsga haris bo‘lg‘il, ishdan malul (qayg‘uli) bo‘lmagil, harna eshitsang yod qilg‘il, taqlidga rozi bo‘lmag‘il ... oz so‘zlag‘il va uzoqni o‘ylag‘il ... Agar munozara qilmoq tilasang, xasmga (raqib) qarag‘il, agar uning bilan tortishmoqqa quvvating bo‘lsa va so‘z uzaysun desang dalillar va misollar bila munozara qilg‘il. Yo‘q ersa so‘zni muquf (qisqartir) qo‘yg‘il va bir misolg‘a qanoat qilg‘il, bir isbot ila tur, rad qilma, ehtiyot bo‘lg‘ilki, keyingi so‘zing avvalgisini teskari bayon qilmasin... Agar faqihlar munozara qilsalar so‘zni urf-odatdin boshlag‘il va urf-odatni qiyos, mumkinot bilan aytg‘il.

Munozara usulida mujbot (sabab) va nomunosabot, mumkinot va nomumkinot bo‘lsa, ayb ermasdur. Oxirgi maqsadni aniq ma‘lum qilg‘il va so‘zni ziynat bila deg‘il. Bag‘oyat qisqa va bag‘oyat uzun so‘z aytmag‘il, bema‘ni so‘z demag‘il” [2, 99-100].

Mazkur misoldan ko‘rinib turibdiki, ilm olishda munozaradan samarali foydalanish, bu jarayonda shaxsiy fikrni bayon etish fikrlar xilma-xilligini yuzaga keltiradi. Shuningdek, munozara chog‘ida shaxsda faraz, isbot, yakun, bahs yurita olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Sharqning buyuk siymolaridan Muslihiddin Sa‘diy ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida fikr yuritir ekan, u bolalardagi tug‘ma qobiliyatni e‘tirof etib yozadi:

Qobiliyat bo‘lsa aslida

Tarbiyat unga qiladi asar.

Qancha urinma, bo‘lmas sayqali,

Temir aslida bo‘lmasa javhar [4, 143].

Alloma tarbiyada qattiqqo‘l bo‘lishni, biroq aslo dilozor bo‘lmaslikni tavsiya etadi:

Xush xulq kishiga qattiq gapirma,

Sulh istab kelsa, jangga chaqirma.

Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo

Dilozor yarasiga qo‘ymag‘il malham.

Aylama rahm-shafqat ilon-chayonga

Bundan ozor topar farzandi odam [4, 160-161].

Bu o‘rinda qattqlik va yumshoqlik ham doimo meyorida bo‘lishi lozim, biroq yovuzlarga nisbatan ayovsiz, yaxshilarga esa yumshoq muomala zarurligini uqtiradi.

Muslihiddin Sa‘diy ham boshqa mutafakkirlar kabi ilmda munozara uslubini qo‘llashni tavsiya etadi. Lekin munozarani tashkil etish muayyan qoidalarga asoslanishi, unga amal qilinishi zarur. Xususan, bilimdon va nodonlar bilan bahslashishda doimo meyorini bilish zarur: “Johil bilan bahslashgan olim – izzat, umid qilmay qo‘ya qolsin. Basharti bellashuvda johil olimdan ustun chiqsa, ajablanarlik yeri yo‘qdir, chunki, hamisha tosh gavharni sindiradi” [3, 143-146].

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy yoshligidan boshlab ilm olishga mehr qo‘yganligi sababli zamonasining ulug‘ shoiri, davlat arbobi bo‘lib yetishadi. Alloma mavjud fanlarning barchasini o‘rganish inson uchun g‘oyatda foydali ekanligini uqtiradi va bu borada amaliy harakatlarni tashkil etadi. Chunonchi, o‘zi tashkil etgan “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochadi, uni o‘z vaqfidan mablag‘ bilan ta‘minlaydi. Ta‘lim oluvchilardan ilm o‘rganishda qattiq intizom talab etilgan. Shuningdek, qobiliyatli shaxsni tarbiyalamaslik, uning qobiliyatini rivojlantirmaslik zulm bilan tenglashtiriladi: “Qobiliyatini tarbiya qilmaslik zulmdir, qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, bunga tarbiyangni nobud qilma” [4, 243].

Alloma tarbiyada namuna metodini ma‘qullagan. Bu borada o‘qituvchi va otana namunasi birinchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lsa-da, tarbiyada jismoniy jazoni qoralagan. Bolaga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lish, lekin qattiqqo‘llikda ham, xushmuomalalikda ham meyor bo‘lishini alohida ta‘kidlagan.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘qituvchilarni talabchan va o‘z kasbining bilimdoni bo‘lishga undagan, tarbiya masalasiga jiddiy e‘tibor bergan. Mutafakkirning fikricha, bilim olishda uzluksizlik ma‘qullab, bilim beruvchi ustoz – murabbiylarning o‘zlari ham ma‘lumotli, o‘qitish usullarini chuqur egallagan bo‘lishlarini talab etadi. Johil, mutaasib, nodon domlarni qoralab, o‘qituvchi mehnatining og‘irligini alohida ta‘kidlaydi. Madrasa mudarrislarining fozil, dono, kamtar, ma‘naviy pok insonlar bo‘lishini istaydi va shunday bo‘lishi uchun kurashadi.

Mashhur mutafakkirlar inson aqliy qobiliyatini, ilmiy quvvatini, iste‘dodini takomillashtirish uchun o‘zida zukkolik, fahm tezligi, zehn o‘tkirligi, bilimlarni tez

egallash, qo'yilgan muammoni tez anglash, ilgari his etgan va tasavvur qilgan barcha narsalarni esda saqlash, xotira kabilarni rivojlantirishi lozimligiga alohida urg'u berib o'tganlar.

3. Results and Discussion

Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish maqsadida maktab va madrasalarda ana shu talablarga rioya etilgan, talabalarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarni tarbiyalash uchun "Tarbiyai fikriya", "Tarbiyai tafakkuriya", "Tarbiyai ixlosiya" kabi metodlar qo'llanilgan, ular talabalarni fikrlashga o'rgatib, tafakkurlarini rivojlantirib, bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirgan. Shuningdek, tafakkurni rivojlantirishda samarali bo'lgan ilmiy munozara, sharhli o'rganish, muammolarni hal etish, kuzatish, savol-javob, bilimlarni sinash, ko'rgazmali tajriba kabi uslublar qo'llanilgan.

O'tmish ta'lim tajribasida ta'lim uslublari har bir talabaning qobiliyatini namoyon etishga, zehni o'tkirlashga, tafakkurini rivojlantirishga yordam bergan. Natijada a'lo, yaxshi, o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi talabalar ajratilib, ular bilan mashg'ulotlar ham o'ziga xos individual tarzda olib borilgan.

Iqtidorli bolalarga beriladigan bilimlar hajmi ko'paytirilib, ularning adabiyotlar bilan mustaqil shug'ullanishiga ko'proq e'tibor berilgan. Iqtidorli talabalar maktab yoki madrasalarda talab etiladigan bilim hajmini o'zlashtirib, ma'lum sinovdan o'tgach, o'qishni muddatidan oldin bitirish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Har bir o'qituvchi talabalarga umumiy bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni san'at va muammoli masalalarni yechish sirlari bilan ham tanishtirib borganlar.

O'tmishda muallimlar va madrasa mudarrisleri ko'proq muhokama va munozaralar uyushtirib, matni sharhli-izohli o'rganish metodlariga katta e'tibor qaratganlar.

Muhokamalarda avval ma'lum voqea-hodisalar yuzasidan hukm chiqarib, so'ngra noma'lum voqea va hodisalarni muhokama etish ko'zda tutilgan. Talabalarga avval ma'lumotlar berilib, so'ngra to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlarni bir-birlaridan ajratib olishga imkon beruvchi qobiliyat tarkib toptirilgan.

Madrasalarda dars berish uchun taniqli olimlarni taklif etish an'anasi shakllangan. Bu an'ana XIV-XV asrlarda Samarqand madrasalarida ham qo'llanilgan.

Madrasa talabalari oldindan berilgan muammolar bilan tanishtirilib, muhokama etilayotgan muammoni qizg'in munozara asosida chuqur o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratilgan.

Talabalarda zehni tarbiyalash, ularning bilimlarini mustahkamlash, tafakkur qobiliyatlarini mustahkamlash, ma'lumotlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishlariga erishish maqsadida chiston (topishmoq)larni yechish, muvashshahlar yozish, o'rganilayotgan muammoni sharhlash va izohlash kabi usullardan foydalanilgan.

Bu usullar talabalarni rag'batlantirgan, o'qishga, ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirgan. Chunonchi, mashhur shoira va mohir muallima Uvaysiy

(Jahon otin) o‘zi tashkil qilgan darslarda qizlarning zehni tarbiyalashda quyidagi chistonlardan samarali foydalangan:

Ul na qush ko‘rinmaskim, shafaq, bolu pari,
Misli ul raf-raf suvoru bilsangiz, yo‘qtur tani,
Voqif erur kecha-kunduz xizmatida to‘rt g‘ulom,
Qon ilan ermish murassa bul chiyiston maskani.

(Qalb, to‘rt g‘ulom – ko‘z, og‘iz, quloq, burun)

Ul nadurkim sabz to‘nliq, yoz yog‘ochning boshida,
Qish yalong‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida,
Barcha qushlarning so‘ngoki ichida,
Ul na qushdirkim so‘ngoki toshida.

(Yong‘oq)

Ikki mahbubni ko‘rdim, bir-birisin ko‘rmagan,
Ikkisining o‘rtasida, do‘stlar, qil sig‘magan.

(Kun va tun)

Ul nadurkim, poyi yo‘q, yursa boshi birla yurar,
Yurganida hok surmay, ancha ustolik qilar.

(Suv)

Ul nadurkim, bir kelin o‘zi cho‘tir,
Yetti qat parda ichida misli hur.

(Makkajo‘xori) [5, 16-117].

Bunday chiston, muammo, muvashshah janrlarida yaratilgan asarlardan bugungi kunda ham ta‘lim jarayonida foydalanish talabalarning zehnlari, tafakkur qobiliyatlarini oshiradi hamda iqtidorlarini namoyon etishga yordam beradi.

XIX asrda yashab ijod etgan Dilshod Otin o‘zbek va tojik tillarida badiiy jihatdan yuksak she‘rlar yozish bilan bir qatorda mohir pedagog ham bo‘lgan. Shoira o‘zining “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) asarida bu haqida quyidagilarni bayon etadi: “... 51 yil maktabdorlik qildim. Maktabda a‘lo va o‘rta o‘quvchilardan doim 20 va 30 qiz ta‘lim olar edilar. 891 qizni savodli qilib chiqdim. Ulardan yaqin to‘rtidan bir qismi tab‘ nazmi bor shoira, oqila qizlar edi... Natijada bir muncha zehn va fashohat egalari ikkiyoqlama zulm: mutlaq hokimlik va islom ulamolarining ikkiyuzlamachiliklarini o‘z ijodlariga maxsus mavzu qilib oldilar. Ijod yo‘lida aksar tab‘ egalari buyuk amir va adabiyot shohi Navoiy g‘azallarini o‘rgandilar va Nizomiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil, Umar Hayyomlarni o‘zlariga ustoz deb bildilar. Ikki yuz yigirma shoiradan 24 tasi ilg‘or va o‘tkir edi... ulardan Xayriniso, Bahriniso, Anbaroy va To‘tiqiz nomli qizlar yaxshi shogirdlardan bo‘lib, Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliylarga oshiqi payrav edilar” [6, 85].

Anbar otin o‘zining “Qarolar falsafasi” asarida o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy ahvoliga, xotin-qizlar hayotiga nisbatan tanqidiy mulohazalar bildiradi. Shuningdek, shoira asarlari orasida 160 misradan iborat “Yakka baytlar” deb nomlangan turkum baytlar – turkum she‘rlar ham borki, bu shoira ijodining keng qamrovligidan darak beradi. Ushbu asarida shoira arab alifbosidagi 27 harfning har

biriga alohida bayt bag'ishlaydi. Har bir bayt misralarining oxirgi so'zi albatta arab yozuvidagi bitta harf bilan tugallangan bo'ladi. Masalan: "Alif" harfiga:

Odam ersang ma'ni bil dona-dona,
Vatan erur sanga ikkinchi ona!
So'zlamasdan oldin so'zingni sina,
Har bir so'zdir umring ichinda sina.

Yoki "k-kof" harfiga:

Odam ersang ko'ngling etgil pok-pok,
Sandin etmasdin o'zini ulki pok.
Har nafas mazmun ila o'tsa kerak,
Odamida bo'lsa gar yaxshi tilak,
Xalq uchun tebratgusi doim bilak [6, 140].

Mazkur she'r mazmun jihatdan pedagogik xususiyatga ega. Unda shoira yoshlarni ilm olish, vatanni sevish, odobli va mehnatsevar bo'lish, ijod qilish, ona tilida foydali so'zlarni so'zlashga da'vat etadi. Asarning eng muhim jihati bolaning tezroq va puxtaroq bilim olishi uchun har bir harfni pand-nasihatga boy misralar orqali qiziqib o'zlashtirishiga yordam beradi. O'quvchi ushbu asar orqali bir tomondan badiiy zavq olib, estetik didi o'ssa, ikkinchi tomondan zehni o'tkirlashadi. SHE'rni yodlash barobarida harflarni ham puxta o'zlashtirib oladi [6, 140-141].

Ma'lumki XIX asrning II yarmi XX asrning boshlarida ilg'or ziyolilar (jadidlar) Buxoroda madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy darslarni ham o'qitishni shart qilib qo'ydilar.

Jadidizm vakillari jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, balki isloh qilish orqali rivojlantirishni o'zlariga maqsad qilib olgan edilar. Jadidchilik harakati g'oyalarini Turkiston maktablariga tatbiq etishda Isxoqhon Ibrat, Abduqodir Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Muhammadsharif So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Mashriq Yunusov (Elbek) kabi ma'rifatparvarlarning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Ular maktablarda ta'lim-tarbiyani isloh qilishga qaratilgan yangi o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratdilar. Mazkur manbalarda o'qitishning yangicha shakl va metodlarini bayon etdilar.

Elbek ona tilining mohiyatiga to'xtalib, uning barcha fanlarga ta'sir etuvchi, ularni o'z qonun-qoidalari bilan zabt etuvchi keng qamrovli fan ekanligini alohida ta'kidlaydi. "Yolg'iz kitobdan o'qitish bilan masala hal bo'lmaydi, - deb yozgan edi Elbek, "Boshlang'ich maktabda ona tili" nomli asarida, - balkim ul kitobdagi yozilg'on narsalarni amalga oshirish kerakdir. Albatta bu ish uchun o'qitg'uvchilarning oz bo'lsa-da, mana shu kitoblar kabi o'qitish yo'llarin ko'rsataturg'on bir asarni kechirishlari tegishdir...", yoki "Til o'qitishda savodxon bo'laylik" nomli maqolasida "...boshlang'ich ta'limning tub vazifasi... jo'g'rofiya, tabiiyot, tarix, hisob, rasm kabilarni o'rganish davrida ona tili materiallari orqali bilim berishni tashkil etish bilan ish ko'rish... Bir elning maktabin tirgizaturg'on narsa u elning ona tilisidir. Tili bo'lak el turi bo'lak maktab izlaydi. Bir elning maktabi o'sha elning o'z tilining negiziga qurilg'on bo'lmog'i tegishdir. El tili el maktabig'a ona bo'lmog'i tegishdir. Chindanda u shunday bo'ladir. Biroq bir

elning tarixida turli sabablar bilan el maktabi bir davrda onasidan ayrilib yetim bo'lib qolishi mumkindir. Shunday davr biz – o'zbeklarning maktabining boshidan-da kechdi. To'g'risi, endi kechib turibdir" [7, 16-18].

Jadidchilik harakatining bosh masalasi, avvalo xalqni ma'rifatli qilish, buning uchun esa ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishdan iborat edi. Hayotning o'zi yangi usul maktablarini tashkil etishni taqozo qilar edi. Yangi usul maktablarini tashkil etish hamda ular uchun yangi o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratishda Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori kabi o'nlab ma'rifatparvarlar samarali faoliyat ko'rsatdilar. Ular tashkil qilgan maktablarda yangicha ta'lim-tarbiya usullari qo'llanilar, maqsad – yoshlarni o'z zamonasining ilg'or kishilari etib tarbiyalash edi.

Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yohud axloq", "Maktabi guliston" singari darsliklari bir necha bor bosilib chiqdi hamda bu darsliklar o'sha davrda ochilgan Turkistonning ko'plab maktablari uchun muhim qo'llanma bo'ldi.

Alloma o'z davrining dolzarb muammolarini inobatga olgan holda "Turkiy guliston yohud axloq" asarida barkamol insonni tarbiyalashda "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi"ga jiddiy e'tibor qaratdi, barkamol inson egallashi lozim bo'lgan fazilatlar tizimini yaratadi.

Abdulla Avloniy tomonidan qo'llanilgan tarbiya metodlarining muhim jihati tarbiya jarayonida nazariy fikrlarga tayanib qolmaslik, balki har bir o'git va nasihatni dalillar, hayotiy misollar yordamida mustahkamlash asosida o'rganilayotgan materialni o'quvchi xotirasida uzoq saqlanishini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Pedagog olim badan tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Ichkilik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatligiga zararli, og'ulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur...

Salomatlik saqlov lozim ishdur,
Gunohdin saqla jisming yozu qishdur.
Kasal bo'lsang, bo'lur dunyo qorong'u,
Maishat talx o'lib hasrat chekishdur.
Haromu shubhadan pok et o'zingni,
Bu dunyo ayshu ishratdan kechishdur.
Hamma ishratchi hijronlikda ketdi,
Bu olamda bir ish ishlab ketishdur" [8, 15].

Abdurauf Fitrat, ayniqsa, millatparvarligi, millat vakillarining har tomonlama kamol topishi to'g'risida qayg'uruvchi olim, pedagog, yozuvchi va dramaturg sifatida ijod qildi. Alloma tilni millatning shon-sharafi, or-nomusi deya e'tirof etdi.

Alloma tilni ko'z qorachig'idek saqlashga, boyitish, taraqqiy qildirishga e'tibor qaratib, ona tilini xorijiy so'zlar hisobiga emas, aksincha, ko'proq o'z imkoniyatlari negizida boyitish va taraqqiy ettirish maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beradi.

Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarining ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag‘ishlangan. Unda barkamol inson tarbiyasida badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya haqida fikr yuritadi.

Badan tarbiyasida bolani go‘dakligidan boshlab ovqatlanishi, uyqu, poklik, harakatning farzandning kamolga yetishidagi ahamiyati haqida fikr yuritadi. Shu bilan birga aqliy tarbiyani samarali tashkil etish, bu jarayonda tashqi va ichki ma’lumotlarni yodda saqlash va xotirani mustahkamlash, muhokama yuritish kabilar alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi.

Axloqiy tarbiyada esa inson fe’li va harakatlari, mayllari: baxt mayli, faoliyat mayli, izzat-nafs, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli, ibrat olib e’tiborda bo‘lish mayli, bilish mayli, go‘zallik mayli, fazilatga muhabbat, iroda va ixtiyor kabilarga e’tiborni qaratadi.

Abdurauf Fitrat oila tarbiyasini samarali tashkil etishda quyidagi shartlarga amal qilish zarur deb hisoblaydi:

- 1) farzandlarning badan va fikriy tarbiyasida sustkashlik qilmaslik;
- 2) ota-ona farzandlariga o‘z nuqsonlarini bildirmasliklari;
- 3) bolalarga ibratli kishilar haqida hikoyalar so‘zlab berish;
- 4) bolalarning o‘z iroda va aqliga qarab harakat qilishga erkinlik berish [9, 91-92].

Demak, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaviy qarashlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashlarini o‘stirishda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib ulardan bugungi kun talablari darajasida foydalanish nihoyatda muhim sanaladi.

4. Conclusions

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlarining milliy-ma’naviy merosida ilgari surilgan g‘oyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashlarini o‘stirishda boy tajribaga ega bo‘lib, uning mazmuni, shakl va metodlari bugungi kun talablariga ham mos keladi.

Ayniqsa, asrlar davomida shakllangan barkamol shaxs tarbiyasi an’analari bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ulardan ta’lim jarayonida eng zamonaviy metod va usullar bilan uyg‘un holda maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хос Ҳожиб, Юсуф. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим) /Транскрипция. Ҳозирги ўзбек тилига тавсиф ва нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 954 б.
2. Кайковус, Қобуснома /Нашрга тайёрловчи: С.Долимов. Т.: Ўқитувчи, 1986. –168 б.
3. Саъдий. Гулистон. – Т.: Бадиий адабиёт нашр. 1968. – 184 б.

4. Навоий, Алишер. Махбуб-ул қулуб (Қалблар севгилиси). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 111 б.
5. Увайсий шеърятидан /Тузувчи М.Қодирова. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 122 б.
6. Дилшод, Анбар отин. – Т.: Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси. ФАН, 1994. – 143 б.
7. Элбек. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ НМАК, 1999. – 287 б.
8. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
9. Фитрат, Абдурауф. Оила ёки оила бошқариш тартиблари /Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. тарж.: Ш.Воҳидов. – Т.: Маънавият, 1998. – 112 б.